

Til bilgan el bilar

2017-yil 15-dekabr kuni “Iqtisodiyot va menejment” fakulteti yoshlar yetakchisi Rahmatova Muxlisa tashabbusi bilan fakultet talabalarining xorijiy tillarni o’rganishga yanada qiziqishni oshirish, ularning bilim va salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, tajriba almashish maqsadida yaqinda faoliyat boshlagan “Leadership organization for youth” tashkiloti asoschisi Maftuna Mo’minova va uning volantyorlar Hamidova Munira hamda Vahobov Azizbek tomonidan institutimizning Axborot resurs markazida mahorat darslari o’tkazildi.

Hayratlanarlisi, bu shijoatli yoshlar litsey va maktab o’quvchilari bo’lishiga qaramasdan, o’z tashkilotiga asos solib, u yerda samarali faoliyat yuritishmoqda, shuningdek, tengdoshlariga bilim berib kelayotganligi bilan tahsinga sazovor.

Ma’lumki, institutimizda har juma kuni ingliz tilida so’zlashish kuni sifatida e’tirof etilgan. “Leadership” tashkiloti tomonidan o’tkazilgan ushbu taqdimot ham aynan shu maqsadni amalga oshirishdagi samarali sa’y-harakatlardan biridir.

Ingliz tilida o’tkazilgan mahorat maktabi motivatsion videorolik bilan boshlanib, til o’rganish bo’yicha tavsiyalar ko’rsatilgan taqdimot namoyishiga ulanib ketdi. Unda turli interaktiv usullar qo’llanilgani sababli qizg’in bahs-munozaralar va muhokamalarga boy bo’lib o’tdi. Tadbir davomida talabalar o’rtaga tashlangan muammoli vaziyatlarga turli yechimlar topib, o’z fikrlarini ingliz tilida bildirdilar.

Talabalar kengashi sardori Jahongir Saidaxmedov axboroti

Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov